



THE RELATIONSHIP OF THE TRANSFORMATION OF SOCIAL IDEAS IN THE DEMOCRATIC DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN WITH GLOBAL PROCESSES

Mansur Nabiyeu

senior lecturer

Jizzakh State Pedagogical University

Uzbekistan, Jizzakh

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, United Nations, Sustainable Development Goals, Action Strategy, New Uzbekistan Development Strategy, Uzbekistan 2030 Strategy, social goals, social ideas, transformation.

Received: 08.02.25

Accepted: 10.02.25

Published: 12.02.25

Abstract: The information that the transformation of social ideas in the democratic development of new Uzbekistan is being carried out in connection with global processes, in particular in accordance with the Sustainable Development Goals for the World by 2030, adopted in 2015 under the auspices of the United Nations, is revealed through analytical conclusions.

YANGI O‘ZBEKISTON DEMOKRATIK TARAQQIYOTIDAGI IJTIMOIIY G‘OYALAR TRANSFORMATSIYASINING GLOBAL JARAYONLAR BILAN ALOQADORLIGI

Mansur Nabiyeu

katta o‘qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘zbekiston, Jizzax

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari, Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston 2030-strategiyasi, ijtimoiy maqsadlar, ijtimoiy g‘oyalar, transformatsiya.

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonning demokratik taraqqiyotidagi ijtimoiy g‘oyalar transformatsiyasi global jarayonlar bilan aloqada hususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida 2015-yilda qabul qilingan Dunyoni 2030-yilga qadar Barqaror Rivojlantirish Maqsadlari bilan uyg‘unlikda olib borilayotganligi haqidagi ma’lumotlar tahliliy xulosalar yordamida ochib berilgan.

СВЯЗЬ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ИДЕЙ В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА С МИРОВЫМИ ПРОЦЕССАМИ

Мансур Набиев

старший преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Узбекистан, Джизак

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Организация Объединенных Наций, Цели устойчивого развития, Стратегия действий, Новая стратегия развития Узбекистана, Стратегия «Узбекистан 2030», социальные цели, социальные идеи, трансформация.

Аннотация: В данной статье автор попытался рассмотреть возможности применения опыта зарубежных стран в оказании медицинских и социальных услуг пожилым людям и людям с ограниченными возможностями в Узбекистане. Он проанализировал сферу медицинского и социального обслуживания передовых зарубежных стран и дал теоретические и практические выводы.

Kirish.

Yangi O‘zbekistonda bugungi kunda ijtimoiy sohada ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lib qolayotgani yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona aloqalarni yangi bir bosqichga olib chiqdi. Mamlakatimiz dunyo davlatlari bilan ochiq do‘stona, konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bunday ulkan o‘zgarishlar natijasida jamiyat yangi bir ijtimoiy g‘oyalarga ehtiyoj sezdi. Insonlarni ijtimoiy g‘oyalarni bunday yangilanishga bo‘lgan ehtiyoji 2017-2021-yillarda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” hamda “O‘zbekiston –2030 strategiyasi” asosida ta’minlandi desak o‘rinli bo‘ladi. Ushbu qabul qilingan strategik hujjatlarning asosi 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish dasturi hisoblanadi. BMT tomonidan qabul qilingan bu muhim xalqaro hujjat haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrni bildirganlar. “Avvalambor, barqaror rivojlanish tamoyillari, barqaror rivojlanish huquqi va BRMlarning yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilishi xalqaro hamjamiyat, xususan BMT tomonidan yuksak baholandi”[1]. Ushbu qabul qilingan strategik hujjatlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosatga tayanib aytadigan bo‘lsak Yangi O‘zbekistonda boshlangan kuchli islohotlar ortga qaytmas jarayon ekanligini ko‘ramiz.

Asosiy qism.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak ijtimoiy g‘oyalar jamiyatda insonlar yashab, mehnat qilishlari uchun barometr vazifasini bajarib

turgan. Ba’zida shunday bir tashkilot yoki davlatlar bo’ladiki ular tomonidan bajarilgan ishlar, ilgari surgan fikr va g’oyalari butun yer yuzidagi insonlarga namuna bo’ladi. “Barqaror Rivojlanish Maqsadlari barcha mamlakatlarni – kambag’al, boy va o’rta daromadlilarni — sayyoramizni himoya qilgan holda farovonlikka ko’maklashishga chaqiradi. Ular qashshoqlikka barham berish iqtisodiy o’sishni ta’minlovchi va bir qator ijtimoiy ehtiyojlarni, jumladan, ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish o’rinlari imkoniyatlarini, iqlim o’zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minlovchi strategiyalar bilan birga borishi kerakligini tan oladilar”[2].

Ijtimoiy g’oyalar negizida jamiyat farovonligini ta’minlash bosh maqsad hisoblanadi. O’zbekistonda ham 2017-2021-yillar davomida ijtimoiy g’oyalar tizimi BMT tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror Rivojlanish Maqsadlaridan kelib chiqib ishlab chiqildi. “Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko’lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo’ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi”[3].

Ijtimoiy g’oyalar qachon jozibador kuchga ega bo’ladi? degan savolni berib quyidagi unga quyidagicha javob bersa bo’ladi. Ijtimoiy g’oyalar jamiyat unga kuchli ehtiyoj sezganda jozibador kuchga ega bo’ladi. Jamiyatning ma’lum bir ehtiyoji, manfaatiga xizmat qilgan ijtimoiy g’oya, ehtiyojlar qondirilsa, manfaatlar ta’minlansa yangi bir ijtimoiy g’oyaga ehtiyoj seziladi. “Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag’allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o’rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarildi”[4].

Davlat va jamiyat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning natijadorligi tezda ko’rinmasligi mumkin. Misol uchun ta’lim sohasidagi islohotlar kamida 5-10 yil degan o’zining ilk natijasini beradi. Shunday ekan ma’lum bir dasturlar, islohotlar bo’ladi ularni amalga oshishi ma’lum bir vaqt talab qiladi.

Demokratik jamiyatlarda insonlar ma’lum bir huquqlarga erishgandan keyin yangi bir oldingi huquqlardan qulayroq, imkoniyat doirasi kengroq bo’lgan huquqlarni xohlaydi. Davlatlardagi islohotlarning tag zahirida ma’nashu odamlarni huquqlarini qonunlar, islohot dasturlari orqali ta’minlash yotadi. O’zbekistonda ham bu islohotlar “Yangi O’zbekiston” deb nomlangan ijtimoiy-siyosiy g’oya asosida olib borilmoqda. “Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O’zbekistonni barpo etish bo’yicha xohish-irodasini ro’yobga chiqarish, har bir

fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida"[5].

Davlatlar boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabat o'rnatayotganda xalqaro huquq normalariga va Davlat o'zining asosiy qonunida belgilab qo'yilgan normalar asosida olib boradi. Har bir davlatda ijtimoiy munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy qonun bo'ladi. Shu qonun orqali qolgan boshqa qonun hujjatlari qabul qilinadi, davlat va jamiyatni boshqarish uchun qonun osti hujjatlarini ishlab chiqadi. O'zbekiston Respublikasida konstruktiv ijtimoiy g'oyalarning kafolati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"[6]. Deb davlat va jamiyat boshqaruvi qay shaklda olib borilishi, ijtimoiy g'oyalarning rivojlanish trektoriyasi haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz.

A.Mo'minov Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi demokratik o'zgarishlar, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sohalaridagi islohotlar, fuqarolarning kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlarning tarixiy shakllanish bosqichlari, ularning ilmiy-nazariy jihatlari haqida fikr bildiradi. "Bugungi kunda O'zbekiston o'zining demokratiya prinsiplariga asoslangan erkin fuqarolik jamiyati qurish pozitsiyasini mustahkam belgilab olgan. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" milliy taraqqiyot rivojida yangi bosqich hisoblanib, unda xalqning farovon hayot, barqaror rivojlanish bilan bog'liq maqsadlari ifodalangan. Yangi O'zbekiston orzusi ham jahondagi milliy taraqqiyot g'oyalari kabi asrlar davomida takomillashib kelmoqda. Shuning uchun uning omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos xalqning boy tarixi, ma'naviy merosi va qadriyatlaridir"[6].

M.Usmonov Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi demokratik o'zgarishlar, BRMni milliy siyosat va dasturlarga kirishini ta'minlashning ilmiy-nazariy jihatlari haqida fikrlarini bildirganlar. "2015 yilda BMT butunjahon sammitida 2030 yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish Kun tartibi, uning 17 ta o'zaro bog'liq, bir-birini mustahkamlovchi va to'ldiruvchi Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va ularga erishish borasidagi 169 ta vazifa tasdiqlandi. Kun tartibi, bu – odamzod, sayyora va farovonlik yo'lidagi harakat rejasi bo'lib, yanada erkinroq sharoitlarda umumbashariy tinchlikni mustahkamlash, barqaror tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash, o'zaro bog'liq va globallashtayotgan dunyoda mavjud yoki ehtimoliy yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun birgalikda faol choralar ko'rish g'oyalariga asoslangan"[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Olib borilayotgan ilmiy ishlarda tadqiqot metodologiyasini to'g'ri tanlash juda ham muhim. To'g'ri tanlangan metod orqali ilmiy xulosalar to'g'ri va ishonchli

chiqadi. Ilmiy xulosalarni to'g'ri va ishonchli chiqish uchun birgina metoddan foydalanish yetarli bo'lmisligi mumkin. Bunday holatlarda ba'zan bir nechta metodlarni uyg'unlashtirgan holda foydalanish maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Ilmiy maqolada xulosa qabul qilishimiz uchun Dialektik, tarixiy, tizimli tahlil. Qiyosiy tahlil metodlarining yutuqlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-yilda butunjahon sammitini o'tkazadi. Ushbu o'tkazilgan sammitda 2030 yilgacha bo'lgan vaqtga qadar Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) tasdiqlandi. Ushbu xalqaro dastur 17 ta yo'nalishda 169 ta vazifadan iborat.

Ushbu Barqaror Rivojlanish Maqsadlarning yo'nalishlari quyidagilar:

1. Qashshoqlikning barcha shakllariga barham berish.
2. Ochlikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziqlanishni yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish.
3. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish.
4. Barchani qamrab oluvchi, teng huquqli hamda sifatli ta'limni ta'minlash va barcha uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish..
5. Gender tengligini ta'minlash, barcha ayol va qiz bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.
6. Barcha uchun xavfsiz suv zaxiralari va sanitariya vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
7. Barcha uchun energiyaning arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
8. Keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o'sish hamda barcha uchun bandlik va munosib mehnat qilish imkoniyatlarini ta'minlashga ko'maklashish.
9. Mustahkam infratuzilma yaratish, keng sanoatlashgan va innovatsiyalar bilan boyitilgan tizim joriy etilishiga ko'maklashish.
10. Mamlakatlararo va ichki tengsizlik darajasini qisqartirish.
11. Shahar va aholi yashash joylarining ochiqqligi, xavfsizligi, mustahkamligi va ekologik barqarorligini ta'minlash.
12. Oqilona iste'mol qilish va ishlab chiqarish modellariga o'tishni ta'minlash.
13. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha tezkor choralar ko'rish.
14. Barqaror taraqqiyot yo'lida okeanlar, dengizlar va dengiz zaxiralarini asrash va ulardan oqilona foydalanish.
15. O'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llashishga qarshi kurashish, yer tanazzuli holatlariga chek qo'yish va yer unumdorligini qayta tiklash hamda biologik xilma-xillikning yo'qolib ketish xavfini bartaraf etish.

16. Barqaror rivojlanish manfaatlari yoʻlida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar qurilishiga koʻmaklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni taʼminlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish.

17. Barqaror rivojlanish manfaatlari yoʻlida global hamkorlikni faollashtirish.

Ushbu qabul qilingan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari asosida Oʻzbekiston Respublikasida Oʻzbekistonning uchta taraqqiyot strategik dasturi qabul qilindi. Jumladan 2017–2021-yillarda “Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha

Harakatlar strategiyasi”, 2022–2026 yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyalaridir. Ushbu qabul qilingan strategiyalarning asosiy maqsadi quyidagicha inson shaʼni va qadr-qimmatini, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash va himoya qilishdir.

2017–2021-yillarda “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi”da ilgari surilgan ijtimoiy gʻoyalar.

1. Aholi farovonligini oshirish borasida. Fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash. Bandlikni taʼminlash va ishsizlikni kamaytirish. Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va kam taʼminlangan aholi qatlamlariga koʻmak berish.

2. Taʼlim va sogʻliqni saqlashni rivojlantirish maqsadida. Taʼlim tizimini isloh qilish, uning sifatini xalqaro darajaga koʻtarish. Oliy va kasb-hunar taʼlimi bilan qamrovni kengaytirish. Zamonaviy tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish va sifatini oshirish.

3. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha. Fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini taʼminlash. NNTlar va jamoat tashkilotlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash.

4. Gender tenglik va ijtimoiy tenglikni taʼminlash borasida. Ayollar va erkaklar oʻrtasida teng imkoniyatlar yaratish. Nogironligi boʻlgan shaxslarni qoʻllab-quvvatlash va ularga imkoniyatlarni kengaytirish.

5. Madaniy-maʼrifiy rivojlanish maqsadida. Milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish. Yoshlarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasiga eʼtibor qaratish.

6. Ekologik barqarorlik taʼminlash borasida. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2022-2026-yillarda “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”da ilgari surilgan ijtimoiy gʻoyalar.

1. Inson qadri va farovonligi markazda tamoyili asosida. Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash. Har bir insonning hayot sifatini oshirish va adolatli ijtimoiy muhitni shakllantirish. Inson manfaatlariga asoslangan boshqaruvni rivojlantirish.

2. Aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida. Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash va ularning daromadlarini oshirish. Pensiya va nafaqalar tizimini takomillashtirish. Nogironligi bo'lgan shaxslar va ehtiyojmand fuqarolar uchun imkoniyatlarni kengaytirish.

3. Ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha. Maktabgacha ta'lim qamrovini 80 foizga yetkazish.

O'rta va oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida isloh qilish. Yoshlar uchun bepul va zamonaviy kasb-hunar o'rgatish tizimini kengaytirish.

4. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida. Davolash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini oshirish. Qishloq joylarda zamonaviy tibbiy muassasalarni tashkil etish.

5. Gender tenglik va ijtimoiy adolat borasida. Ayollarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash va oilalarni mustahkamlash. Ijtimoiy adolat tamoyillarini jamiyatning barcha sohalarida targ'ib qilish.

6. Ekologik barqarorlik va sog'lom muhitni ta'minlash borasida. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal etish. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini kengaytirish. Suv resurslarini oqilona boshqarish va ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash.

7. Yoshlar va madaniy-ma'rifiy rivojlanish borasida. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun dasturlarni kengaytirish. Madaniyat va san'atni rivojlantirish orqali fuqarolar ma'naviy olamini boyitish. Milliy qadriyatlar va merosni asrash bilan birga global bilimlarni o'zlashtirish.

8. Bandlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida. Yangi ish o'rinlari yaratish va bandlikni oshirish. Yoshlar va ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun imtiyozli kredit va grantlar ajratish.

“O'zbekiston-2030 strategiyasi”da ilgari surilgan ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan ijtimoiy g'oyalar.

1. Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish. Bu inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

2. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanish orqali aholi daromadlarini oshirish maqsad qilingan.

3. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal etish strategiyaning muhim qismi hisoblanadi.

4. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. Huquqiy davlatni mustahkamlash va davlat xizmatlarini yaxshilash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash nazarda tutilgan.

5. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakat ichki va tashqi xavfsizligini ta’minlash, tinchliksevar siyosatni davom ettirish strategiyaning asosiy yo’nalishlaridan biridir.

Xulosa va takliflar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari asosida O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqildi. Bu qabul qilingan uchta strategiyalar bir-birini to‘ldiruvchanlik xususiyati mavjud. Harakatlar strategiyasi 5 ta ustuvor yo’nalishga asoslangan, jumladan, ijtimoiy sohani rivojlantirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va inson huquqlarini himoya qilish. Ijtimoiy sohada ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoyani yaxshilash asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “Inson qadri uchun” shiori ostida ishlab chiqilgan. Ijtimoiy sohada qashshoqlikni qisqartirish, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasini isloh qilish, ayollar va yoshlar huquqlarini himoya qilish muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston–2030 strategiyasi. Uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan. Ijtimoiy yo’nalishda qashshoqlikni ikki baravar kamaytirish, sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini yaratish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash asosiy maqsadlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasini Barqaror Rivojlanish Maqsadlari haqida quyidagi fikrni bildirganlar. “Insonning qadr-qimmati, uning huquqlari, ayniqsa, rivojlanish huquqini hurmat qilish, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish g‘oyasi – barcha BRMLarni o‘zaro bog‘lab turuvchi asosiy halqa hisoblanib, ularning uyg‘unligini ta’minlashga, bir-birini to‘ldirishi, mustahkamlashga xizmat qiladi”[7]. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy rivojlanishi xalqaro tashkilotlar, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rgan holda milliy xususiyatimizdan kelib chiqib amalga oshirib kelinayotganligi haqidagi tahliliy ma’lumotlar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston”. – Toshkent.: “O‘zbekiston” NMIU, 2024.-344-B.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlari // <https://www.un.org/sustainabledevelopment/>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-3107036>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr kuni “O‘zbekiston 2030 strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-158 sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
6. Muminov Alisher Gaffarovich. O‘zbekiston barqaror rivojlanish yo‘lida // *Filosofiya i pravo*. 2023. No2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-bar-aror-rivozhlanish-y-lida>.
7. Усманов Маъруф Шакирович. БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШ // *Filosofiya i pravo*. 2023. No3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bar-aror-rivozhlanish-ma-sadlari-va-inson-u-u-larini-taminlash>
8. Mirziyoyev Sh.M. “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston”. – Toshkent.: “O‘zbekiston” NMIU, 2024.-11-12-B.